

PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDA TARIXIY TIL VA BADIY NUTQ UYG‘UNLIGI

Saparov Eldor Niyatilla o‘g‘li,
Toshkent Amaliy Fanlar o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezis o‘zbek adabiyotida tarixiy romanchilik masalalari Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy haqiqatning badiiy talqini, tarixiy shaxs obrazining ishonarli yaratilishi hamda hujjatlilik va badiiy tafakkur o‘rtasidagi muvozanat masalalari yoritiladi. Asarda Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsining adolatparvar hukmdor, shoir va sarkarda sifatidagi qiyofasi tarixiy manbalar asosida badiiy ifodalangani ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, roman tilining obrazlilik, peyzaj va portret tasvirlari, tazod va o‘xshatish san‘atining g‘oyaviy-estetik vazifasi tahlil qilinadi. Tezisd muallif nutqi va personajlar dialogining tarixiy davr ruhini aks ettirishdagi roli ochib beriladi. Tadqiqot natijalari “Yulduzli tunlar” romanining o‘zbek badiiy-tarixiy romanchiligidagi muhim o‘rnini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: tarixiy roman, Pirimqul Qodirov, Yulduzli tunlar, Bobur obrazi, badiiy haqiqat, hujjatlilik, tarixiy shaxs.

Abstract. This thesis analyzes the issues of historical fiction in Uzbek literature through the example of Pirimqul Qodirov’s novel “Starry Nights”. The study focuses on the artistic interpretation of historical truth, the balance between documentary accuracy and creative imagination, and the credible portrayal of historical figures. Special attention is given to the image of Zahiriddin Muhammad Babur as a just ruler, poet, and military leader, shaped on the basis of historical sources and artistic vision. The article also examines the role of language, imagery, landscape descriptions, contrasts, and stylistic devices in conveying the spirit of the historical period. The interaction between authorial narration and character dialogue is analyzed in terms of its aesthetic and ideological functions. The research substantiates the significance of “Starry Nights” in the development of Uzbek historical novel writing.

Keywords: historical novel, Pirimqul Qodirov, Starry Nights, image of Babur, artistic truth, documentary principle, historical character.

Аннотация. В тезисе рассматриваются проблемы исторического романа в узбекской литературе на примере произведения Пиримкула Кадырова «Звёздные ночи». Основное внимание уделяется художественному осмыслению исторической правды, соотношению документальности и творческого воображения, а также созданию убедительного образа исторической личности. Образ Захириддина Мухаммада Бабура анализируется как образ справедливого правителя, поэта и полководца, сформированный на основе исторических источников и художественного мышления автора. В работе исследуются особенности языка романа, роль пейзажных и портретных описаний, приёмов контраста и художественных сравнений. Раскрывается значение авторской речи и диалогов персонажей в передаче духа эпохи. Делается вывод о важной роли романа «Звёздные ночи» в развитии узбекского исторического романа.

Ключевые слова: исторический роман, Пиримкул Кадыров, «Звёздные ночи», образ Бабура, художественная правда, документальность, историческая личность.

So‘nggi yillarda o‘zbek adabiyotida tarixiy mavzudagi badiiy asarlarning kam yaratilayotgani mazkur yo‘nalishda hujjatlilik prinsipining yetakchi o‘rin egallayotganidan dalolat beradi. Tarixiy faktlar doirasidan chiqib keta olmaslik, badiiy

syujetning manbalar bilan qat'iy chegaralanishi yozuvchi uchun voqealar rivojini erkin tasavvur qilish imkonini cheklaydi. Shu bois tarixiy asar yaratish jarayoni ijodkordan yuksak badiiy tafakkur, chuqur bilim va katta mahorat talab etadi.

Tarixiy badiiy asarning asosiy vazifasi shundan iboratki, unda ijodkor o'quvchi tasavvurida muayyan davr ruhini jonlantirib berishi, tarixiy shaxs taqdirini, zamonning murakkab va keskin kurashlar bilan to'la manzarasini ishonarli tarzda ochib berishi lozim bo'ladi. Tarixiy roman yaratish o'ta murakkab jarayon bo'lib, bunda qahramonning o'z davridagi ijtimoiy mavqeini bugungi zamon mezonlari bilan emas, balki tarixiy haqiqat nuqtai nazaridan baholash muhimdir. Shuningdek, uning zamondoshlari bilan bo'lgan munosabatlarini yoritishda tarixiy dalillarga tayangan holda, davr manzaralari, peyzaj tasvirlari, qahramonlar portreti va ularning ruhiy kechinmalarini o'sha zamon tafakkuri asosida ifodalash maqsadga muvofiq sanaladi. Eng muhimi, tarixiy shaxs badiiy obraz sifatida bugungi kitobxon ongida ishonarli va jonli gavdalanishi zarur. Shu bilan birga, tarixiy asar tili ham alohida e'tibor talab etadi: muallif bayoni va personajlar nutqi sodda, tushunarli, badiiy jihatdan sayqal topgan va o'quvchi tomonidan oson qabul qilinadigan bo'lishi kerak.

Pirimqul Qodirov qalamiga mansub "Yulduzli tunlar" romani ana shunday badiiy-tarixiy asarlar qatoriga kirib, unda tarixiy fakt va manbalar yuksak badiiy mahorat bilan qayta ishlangan hamda yozuvchi ilgari surgan g'oya aniq va ravshan ochib berilgan. Asarda tarixiy shaxs – badiiy qahramonning bugungi kitobxon uchun ibratli jihatlari yetakchi g'oya sifatida ilgari suriladi.

Badiiy-tarixiy asarlar qat'iy talablar asosida yaratilsa-da, ularning o'qishli va kitobxon didiga mos bo'lishi muallifning iste'dodi, ijodiy yondashuvi va individual uslubiga bevosita bog'liqdir. Adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov bu turdagi asarlar haqida fikr bildirar ekan: «Hujjatlilik uslubiy belgi asoratida kundan-kunga o'z harakat maydonini kengaytirmoqda», – deya ta'kidlaydi. Pirimqul Qodirov tarixiy roman yozish uchun zarur bo'lgan tayyorgarlik ishlarini chuqur va izchil amalga oshirgani "Yulduzli tunlar" asarining badiiy yutug'ini ta'minlagan omillardan biridir. Avvalo, adib Zahiriddin Muhammad Bobur yashagan davrni atroflicha o'rgangan va uni o'sha zamon turmush tarzi doirasida erkin harakatlantira olgan. Roman milodiy 1494 yil yozidagi manzara bilan boshlanib, jala yog'ishi fonida soy bo'yidagi majnuntollar ostida ikki yoshning shivirlashib suhbatlashishi orqali tasvirlanadi. Yozuvchi asarni shunday tasviriy lavha bilan boshlaydiki, unda Farg'ona vodiysidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat ramziy tarzda ifodalangan:

"Milodiy 1494 yilning yozi. Saraton issig'ida Farg'ona vodiysining osmoniga chiqqan quyuk bulutlar kuni bo'yi havoni dim qilib turdiyu, kechki payt birdan jala

quyib berdi. Qizil tuproqli tepaliklar orasidan o‘tib kelayotgan sersuv Quvasoy qon qo‘shib oqizilgandek qip-qizil bo‘lib ketdi”. (6-bet)

Pirimqul Qodirov Bobur hayoti va ijodiy faoliyatini yoritishda turli manbalarga tayanadi. Jumladan, Z.M. Boburning “Boburnoma” memuar asari, Gulbadan beginning “Humoyunnoma”si, shuningdek, “Tarixi olam oroyi Abbosiy”, Xondamirning “Habib us-siyar” kabi tarixiy manbalar hamda Bobur shaxsiga oid hujjatli materiallar yozuvchining asosiy manbalarini tashkil etadi. Roman davomida Boburning adolatparvar hukmdor, Navoiy ijodiga ixlosmand shoir va iste’dodli sarkarda sifatidagi qiyofasi izchil va bosqichma-bosqich yoritiladi. Bu jarayonda nafaqat Bobur shaxsiyati ochib beriladi, balki uning g‘azallari yaratilishi, “Boburnoma”ning yozilishiga oid epizodlar ham keltiriladi. Ushbu lavhalar yozuvchining tarixiy haqiqatni badiiy shakllarda ishonchli ifodalaganidan dalolat beradi.

Asarda Boburning Alisher Navoiyga bo‘lgan g‘oyibona muhabbati, uning asarlarini doimiy ravishda mutolaa qilgani Boburning shoir sifatidagi shakllanishida Navoiy ijodining beqiyos o‘rni borligini ko‘rsatadi.

Yozuvchi roman syujetida nafaqat temuriy shahzodalar o‘rtasidagi nizolarni, balki e‘tiqodlar, ya’ni shia va sunniy mazhablari o‘rtasidagi ziddiyatlar fonida yuzaga kelgan taxt uchun kurashlar, mansabparastlik va insoniy munosabatlar o‘rtasidagi to‘qnashuvlarni ham tasvirlaydi. Ushbu qarama-qarshiliklar Bobur va Shayboniyxon, Ismoil Safaviy, Mahmud sulton, Ahmad Tanbal, shuningdek, hind rojalari va brahmanlar o‘rtasidagi munosabatlar misolida rivojlanadi. Garchi bu kurashlar muayyan shaxslar doirasida kechsa-da, ularning salbiy oqibatlari butun xalq hayotiga ta’sir etadi, oddiy insonlar taqdirini chetlab o‘tmaydi. Buni Toxirning keksa otasi tilidan aytilgan quyidagi so‘zlar ham yaqqol tasdiqlaydi:

“– Yo tavba! Bu yoqda Samarqand qo‘shini... uch tomonimizdan yog‘iy bostirib kelibdimi, a? Bu ne ko‘rgulik, mulla Fazliddin? Axir bu podsholar sal murosa qilsalar bo‘lmaydimi, a? Hammasi bir-biriga qarindosh emish-ku...”. (12-bet)

Siyosiy jarayonlardan chetda qolgan ilm-fan va me‘morchilik taraqqiyoti uchun fidoyilik bilan xizmat qilgan ziyolilar hayoti ham muallaq holatda qoladi. Hirotda ta’lim olib, ona yurti Farg‘ona vodiysiga qaytgan mulla Fazliddin siyosiy o‘yinlar qurboniga aylanib, Andijon, Quva va Hirotda o‘rtasida sarson bo‘lishga majbur bo‘ladi. Uning armonli so‘zlari davr fojeasini teran aks ettiradi:

“– Ha, tole bo‘lmasa, qiyin ekan! Men ne-ne orzular bilan ilm-hunar o‘rganib kelgan edim! Vatanimiz bo‘lmish Farg‘ona vodiysida Samarqanddagidek, Hirotdagidek madrasalaru ko‘rkam obidalar qurmoqchi edim. Bu saltanatu podsholardan ne qolur?”

Hammasi nom-nishonsiz ketgay! Bizdan yodgorlik bo‘lib qolsa Ulug‘bek madrasasidek, Navoiy Unsiyasidek san‘at asarlari qolur!”. (13-bet)

Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani badiiy so‘z san‘atining yetuk namunasi hisoblanadi. Asarda voqealar rivoji, tasvirlar, muallif va personajlar nutqi, obrazlararo muloqot, qahramonlarning tashqi qiyofasi va xarakteri badiiy so‘z vositasida mahorat bilan ifodalangan. Lisoniy vositalardan foydalanish darajasi asarning estetik qiymatini belgilab, yozuvchining badiiy mahoratini namoyon etadi. Roman matni kitobxonga nafaqat ma‘lumot yetkazadi, balki unda estetik did, hissiy va ruhiy holatlarni shakllantiradi, bu esa so‘z qudrati bilan bog‘liq:

“Saraton issig‘ida Farg‘ona vodiysining osmoniga chiqqan quyuq bulutlar kuni bo‘yi havoni dim qilib turdiyu, kechki payt birdan jala quyib berdi. Qizil tuproqli tepaliklar orasidan o‘tib kelayotgan sersuv Quvasoy qon qo‘shib oqizilgandek qip-qizil bo‘lib ketdi”. (6-bet)

Quvasoyning qon qo‘shilgandek qizil tasvirlanishi pesimistik kayfiyatni ifodalab, bunday peyzaj orqali yozuvchi Quvaga yaqinlashayotgan xavfni ramziy tarzda aks ettiradi. Roman davomida shunga o‘xshash ohori to‘kilmagan, obrazli peyzaj tasvirlari ko‘p uchraydi. Badiiy asar badiiy uslub mahsuli bo‘lganligi sababli unda so‘zning turfa jilolari, yashirin ma‘nolari va o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida noyob iboralar vujudga keladi. Yozuvchi mavjud lug‘aviy birliklar yordamida fikrni imkon qadar ta‘sirchan, jozibali, shu bilan birga sodda va tushunarli tarzda yetkazishga intiladi.

“Yulduzli tunlar” romanida badiiy so‘zning jilolanish xususiyatlari alohida “fazilat” darajasiga ko‘tarilgan. Matnda “yuk tashuvchi” so‘zlar markaziy ahamiyat kasb etib, muallif munosabatini o‘quvchiga yetkazuvchi asosiy vosita vazifasini bajaradi. Masalan, “yoshi yigirma beshlardan oshgan bo‘lsa ham yuziga hali durust soqol chiqmagan, ko‘sanamo”, “qurbaqataxlit bek” (16-bet), “yirik tishlarini irjaytirib” (17-bet) kabi birikmalar Ahmad Tanbal obraziga nisbatan muallif antipatiyasini ochiq ifodalaydi va o‘quvchida salbiy tasavvur uyg‘otadi. Xuddi shuningdek, “oldingi tishlaridan ikkitasi tushib ketgan semiz” (45-bet) Yoqubbek tasvirida ham salbiy emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik ustuvorlik qiladi.

Asarda muallif har bir jumлага chuqur ma‘no yuklashga intiladi. Jumladan, Umarshayx mirzoning vafoti haqidagi xabarni eshitgan Qorako‘z begimning iztirobi fonida Qutlug‘ Nigor xonimning quyidagi so‘zlari ramziy ma‘noga ega:

“– Undoq demang, jonim! Biz ham endi jar labida qoldik! Butun atrofimiz tahlikali jar”. (33-bet)

Bu orqali yozuvchi Umarshayx mirzoning o‘limida ramziy ma’no borligini, Temuriylar davlati ham xuddi jar labida qurilgan bino singari xavf ostida ekanini Qutlug‘ Nigor xonim tasavvuri orqali ifodalaydi.

Roman bayonchilikka moyil bo‘lsa-da, uzun tasvirlar kitobxonni zeriktirmaydi. Chunki asarda tazod san’atidan keng foydalanilgan bo‘lib, voqealar dinamikligini oshiradi. Masalan, Bobur hayotidagi keskin burilishlar “chorbog‘ning musaffo havosi”, “zilol suvli hovuz”, “salqin ko‘shk”dagi betashvish hayot bilan “dim havo”, “tor ko‘cha” va “benihoya chanqoqlik” holati o‘rtasidagi qarama-qarshilik orqali tasvirlanadi. Shu tarzda yozuvchi qisqa vaqt ichidagi tub o‘zgarishlarni badiiy jihatdan kuchli ifodalaydi.

Ko‘plab epizodlarda yozuvchi tazod bilan birga o‘xshatish san’atidan ham samarali foydalanadi. Darvesh govning begunohligi fonida Boburning toju taxtga munosabati quyidagicha ifodalanadi:

“Boya Boburga xuddi bulutlar orasidan suzib chiqqan to‘lin oyday go‘zal ko‘ringan toju taxt endi oy tutilgan tunday vahimli tusga kirdi”. (57-bet)

Bu yerda toju taxt bir vaqtning o‘zida go‘zallik va dahshat ramzi sifatida tasvirlanib, o‘zaro qarama-qarshi qo‘yiladi.

Tazod san’ati nafaqat voqealar, balki shaxslar o‘rtasida ham qo‘llanadi. Boburning kuchli, jangovar tabiatiga Oyisha begimning nozik va muqim fe‘l-atvori qarshi qo‘yiladi:

“O‘gay taqdir menga bu borada ham kinoya qilmish! – dedi Bobur ichida. – Mendek qo‘nimsiz sayohattabiat kishiga buningdek nozigu muqim tabiat rafiqqa bermish”. (187-bet)

Bundan tashqari, romanda davr ruhi va turli tabaqaga mansub personajlar o‘rtasidagi muomala madaniyati yuqori badiiy mahorat bilan yoritilgan. Dialoglarda imo-ishora, ta‘zim, qo‘lni ko‘ksiga qo‘yish kabi etiket shakllari, shuningdek, ovoz ohanglari orqali muloqotning jonli va tabiiyligi ta‘minlangan. Masalan:

“Sherimbek oldinda borayotgan Boburni ehtiyot qilmoqchi bo‘lib, navkarlariga ‘qurshab boring’ ishorasini qildi”. (50-bet)

“Shayboniyxon munozaraga erk berib, o‘zi hammaning gapiga zimdan quloq solib o‘ltirardi...”. (205-bet)

Ushbu ishoralar personajlar muloqotining tabiiyligini kuchaytirib, vaziyatning ichki drammatizmini ochib beradi. Yozuvchi bosh, qo‘l, yelka harakatlari va mimika orqali noverbal vositalarning ruhiy va hissiy ma’nolarini ham chuqur ifodalaydi, natijada badiiy matnda ular ham go‘yo “so‘zlayotgandek” taassurot uyg‘otadi.

Xulosa qilib aytganda, Pirimqul Qodirov “Yulduzli tunlar” romanida so‘z san’atidan zargarona mahorat bilan foydalangan. Ushbu asar o‘zbek tarixiy romanchiligi uchun namunaviy asar bo‘lib, badiiy-tarixiy adabiyot taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Shu bois “Yulduzli tunlar” romani o‘zbek badiiy-tarixiy romanlaridagi yirik va salmoqli yutuqlardan biri sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qodirov P. Bobur. Yulduzli tunlar. – T.: Sharq, 2016 y.
2. Z. M. Bobur. Boburnoma. – T.: O‘qituvchi, 2008 y.
3. Saidxonov M. Ilmiy xabarnoma, №4. ADU, 2012 y.
4. Qayumov L. Asr va nasr. – Toshkent, 1975.
5. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – T.: Sharq, 2004 y.
6. Shukurov N. Uslublar va janrlar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973.